



**SHO'RLANGAN YERLARDA DASTLABKI  
O'ZLASHTIRISH EKINLARINI YETISHTIRISH  
TEXNOLOGIYALARI  
ТЕХНОЛОГИИ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ**

**СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР ДЛЯ ПЕРВОНАЧАЛЬНОГО  
ОСВОЕНИЯ НА ЗАСОЛЕННЫХ ЗЕМЛЯХ**

**TECHNOLOGIES OF CULTIVATION OF CROPS FOR INITIAL  
DEVELOPMENT ON SALINE LANDS**

*Alijonov Azizbek*

*Ergashev Rahmatillo*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute talabalari.*

*Xodjayeva Nodiraxon Odilovna*

*Organik dehqonchilik va o'rmon melioratsiyasi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Sho`rlangan yerlarni o`zlashtirish uchun uning sho`rini yuvish yoki ekinlar ekish orqali amalga oshiriladi. Bunda esa sho`rlangan tuproqlarga chidamli ekinlar turidan foydalanish qo`l keladi.

**Аннотация:** Освоение засоленных земель осуществляется путем промывки их солью или посадки сельскохозяйственных культур. Полезно использовать культуры, устойчивые к засоленным почвам.

**Abstract:** To develop saline lands, it is done by washing its salt or planting crops. It is useful to use crops resistant to saline soils.

**Kalit so'zlar:** sh`orlangan tuproq, sho`r yerlar melioratsiyasi, gidromorf va oraliq tipdagi tuproqlar, sho`r yuvish, almashlab ekish, tuz profili, suv rejimi.

**Ключевые слова:** засоленные почвы, засоленная мелиорация, почвы

гидроморфного и среднего типа, засоленные выщелачивания, севооборотом, солевой профиль, водный режим.

**Keywords:** saline soil, saline land reclamation, hydromorphic and intermediate type soils, saline leaching, crop rotation, salt profile, water regime.

Sho'r yerlar melioratsiyasi- tuproqning o'simlik ildizi tarqaladigan qatlamidan qishloq xo'jaligi ekinlari hosili va sifatini pasaytiruvchi suvda eriydigan ortiqcha zararli (zaharli) tuzlarni chiqarib tashlash jarayoni. Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqalarida Sho'r yerlar melioratsiyasim. juda katta xo'jalik ahamiyatiga ega, chunki qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarning qariyb 60—65% u yoki bu darajada sho'rangan (faqat O'zbekistonning o'zida turli darajada sho'rangan yerlar maydoni 2,4 mln.ga dan (66,7%) ortiq). Sho'r yerlar melioratsiyasim. gidrotexnik melioratsiya va agrotexnika tadbirlari majmuyi orqali amalga oshiriladi.

Meliorativ tadbirlar majmui sho'r yuvishda suvni juda kam sarflagan holda tuproqdagi o'simlik uchun zarur oziq moddalar va ularning rivojlanishi uchun qulay tuproq suvfizik xossalari saqlashda eng yuqori samarani ta'minlashi kerak. Tuproqdan namning bug'lanish miqdorini tartibga soluvchi samarali drenaj, ratsional sug'orish rejimi va agrotexnika (almashlab ekish, yerlarni tekislash, tuproqqa ekish oldidan va qator oralariga ishlov berish va boshqalar)ni qo'llash qayta sho'rланish imkonini keskin pasaytiradi. Sho'r yerlar melioratsiyasim.da sug'oriladigan uchastkalar va yer massivlari bo'ylab ihota o'rmon mintaqalari tashkil etish, tuproqning sho'rланish darajasiga ko'ra kapital va profilaktik sho'r yuvishning optimal muddatlari hamda normalarini to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega.

Gidromorf va oraliq tipdagi tuproqlarda sho'ri yuvilgan yerlarning qayta sho'rланishini bartaraf etish uchun suv berish rejimini belgilashda tuz profili, aeratsiya zonasidagi tuproqgrunt tuzilishi, grunt suvlari rejimi, ularning chuqurligi va minerallashish darajasi hisobga olinadi. Shunga muvofiq gidromodul bo'yicha

rayonlashtirish uslubi, sugarish usullari va suv berish texnikasi takomillashtiriladi. Sho'rxok yoki sho'rlanishga moyil tuproklarda kimyoviy melioratsiya (ohaklash, gipslash, kislota eritmalaridan foydalanish) bilan qo'shib olib boriladigan maxsus sho'r yuvish texnologiyasi qo'llaniladi.

R.F. Akbarov, M.A. Yusupovning tadqiqotlariga ko'ra, Farg'ona viloyatining Yozyovon, Qo'shtepa va Oltiariq tumani dalalarida sho'r yuvishni 1-2 marta o'tkazib, urug' ekishdan oldin tuproqdagi tuzlar miqdorini o'rgandik. Shunda tuzlar miqdorining asosiy qismi haydov qatlamida quruq qoldiq 0,815% zaharli tuzlar miqdori 0,08% ni tashkil etdi, 26-35 qavatida esa quruq qoldiq 1-0,90%, tuzlar miqdori esa 0,10 % ga teng bo'ldi. Haydov qatlaming ikkala qavati bir biriga solishtirilganda yuza qatlamida bikarbonat va xlor ionlari 0,500 mg/ekv, pastki qavatida esa 0,295 mg/ekv.ga tengligi aniqlandi. Mg, Na, Cl ionlari yuqori qavatda ko'proq uchradi. Gips haydov qatlamida 29,3-64,3 % gacha yetdi, SO<sub>2</sub> esa 6,50-5,35 % gacha bo'ldi. G'o'za, kungaboqar, bug'doy, makkajuxori va pomidor urug'lari ko'kakrib chiqqach fotosintez faoliyatining boshlanishi turli tarzda kechdi. Umuman urug'lar unib chiqishi oson bo'lmay, u tuproq eritmasining konsentratsiyasiga bog'liq holda o'tdi. Masalan, miqdori 0,2% bo'lganda chigit meyordagidek unib chiqdi, bu miqdor 0,4 % bo'lganda ya'ni tuzlarni ko'p to'planishi ba'zi bir ekinlar urug'iga o'ta salbiy ta'sir etmadi. Masalan, 0,20% tuz bo'lganda lavlagi urug'i yaxshi unib chiqdi, biroq tuzga chidamsiz bug'doy urug'i kuzda ekilganda bahordagidan bardoshliroq bo'ldi. Odatda turoq unumdarligini oshirishda go'ng, eski tuproqlar, ariq loyqasi, qum va boshqa mahalliy o'g'itlar keng qo'llanilgan. Ular tarkibidagi oziqa moddalar o'simlik va tuproqdagi jonivorlar yashash manbayi bo'lib, tuproqning suv va fizik hossalarini yaxshilaydi, qisman tuzlarni ko'tarilishiga to'siq bo'ladi.

Sho'rlanmagan yerga nisbatan kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda hosildorlik **15-20** foizga, o'rta sho'rlanganda **30-50** foizga, kuchli sho'rlanganda **70-80** foizga kamayishi ko'p yillik ilmiy izlanishlarda isbotlangan. Shu bois, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash muhim omil bo'lib, ekinlar hosildorligini keskin oshishiga sharoit yaratadi.

S.Isayev, S.Bahodirovaning tajribalariga ko`ra, g`o`zaning istiqbolli “Buxoro-102” navining har xil sho`rlanishda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko`ra, eng yuqori hosildorlik sho`rlanmagan dalada azot-220, fosfor-160, kaly-110 kg/ga me`yorida qo`llanilgan 3-variantda gektariga 41,7 sr/ga, 2-variantda 40,0 sr/ga va 1-variantda 39,0 sr/ga paxta hosili terib olindi yoki 1-variantga nisbatan 2,7 sr/ga qo`shimcha paxta hosili oinganligi kuzatilgan.

A. Qo`ziyev, Ch. Xolmuradov, Sh. Tursunov va Z. Usanovlarning tadqiqotlari Qoraqalpog`iston Respublikasi Mo`ynoq tumani hududini egallagan Orol dengizining chekingan qismidagi nkuchli sho`rlangan tuproqlari hamda Silliq shirinmiya ( Glycyrrhiza glabra L.), Rixter shuragi ( Salsola richteri Karel.) , Yantoq ( Alhagi pseudalhagi M. Bieb.) va achchiq ermon (Artemista absinthium L) dorivor o`simliklarida olib borildi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, sho`rlangan yerlani o`zlashtirish biz uchun aholi ehtiyojlarini qondirish maqsadida ekinlar ekish, ularning ishlab chiqarilishini yo`lga qo`yish kabi masalalarda zarur. Undan tashqari O`zbekiston hududining 60-65 % qismi turli darajada sho`rlanga yerlarni tashkil qiladi. Ularni o`zlashtirish orqali qishloq xo`jaligidagi yer tanqisligi singari dolzarb muammoga ham yechim topiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Kamilov O.K.,” Melioratsiya zasolyonnmx pochv Uzbekistana”. Т., 1985.
2. R.F.Akbarov, M.A.Yusupova “Sho`r yerlarning meliorativ holatini yaxshilash”. ( <https://cyberleninka.ru/article/n/sho-r-erlarning-meliorativ-holatini-yaxshilash>)
3. <https://www.agro.uz/>
4. S.Isayev, S.Bahodirova “Turli sho`rlanish darajasining “Buxoro-102” g`o`za navi hosildorligiga ta`siri” Agro ilm № 4, 2015 7-9-bet
5. A. Qo`ziyev, Ch. Xolmuradov, Sh. Tursunov va Z. Usanov. “ Dorivorlik xususiyatiga ega o`simlik turlarini kuchli sho`rlangan yerlarda yetishtirish”. № 6, 2022. 24-26-bet